


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B. Yunusov

2024-yil "02" 08

ITLARNING VETERINARIYA ONKOLOGIYASI
FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|-----------------------|----------|---|
| Bilim sohasi: | 800000 | – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya |
| Ta'lim sohasi: | 840000 | – Veterinariya |
| Mutaxassislik: | 70840106 | – Kinologiya va it kasalliklari |

Samarqand - 2024

| | | | | | |
|----------------------------|---|--|--------------|------------------------------|---------------------------|
| Fan modul kodi IVO1206 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 2 | ECTS – Kreditlar 6 | |
| Fan modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 8 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya Mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Itlarning veterinariya onkologiyasi | 90 | | 90 | 180 |
| 2. | I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – magistrnlarni itlarda uchraydigan onkologik kasalliklarni kelib chiqish nazariyasi, rivojlanishi, turlari, organizmning har bir to'qimlarida to'qimalarning rivojlanish nazariyalari, onkologik kasalliklarning diagnostikasi, differensial diagnostikasi, davolash va oldini olish bo'yicha bajarilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Fanning vazifasi – magistrantlarni itlarning to'qima, organ, hujayra va ultrastruktura darajasida o'smalarda hosil bo'ladigan dastlabki, boshlang'ich o'zgarishlarni o'sma hujayralari ichidagi organoidlar misolida o'rganish, to'qimalarning o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan jarayonlarni, ya'ni o'smalarni kelib chiqishi, rivojlanishi, klassifikasiyalari va differensiasiya qilishni zamonaviy uslublardan foydalangan holda o'rganishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. Itlarning veterinariya onkologiyasi fanining ahamiyati. Itlarning veterinariya onkologiyasi fanining rivojlanish tarixi. Onkologik kasalliklarning itlar orasida uchrash darajasi. Itlarning veterinariya onkologiyasi fanining boshqa fundamental va klinik fanlar bilan aloqasi. Fanning maqsadi va vazifalari. 2-mavzu. Itlarda onkologik kasalliklarning tasniflanishi. Onkologik kasalliklar haqida umumiy tushuncha. Itlarda uchraydigan o'smalarning turlari, tasniflanishi, o'shish va rivojlanishi bo'yicha umumiy qonuniyatlar. Itlar organizmining turli organ va to'qimalartida o'smalarning hosil bo'lishi. | | | | |

3-mavzu. Itlarda onkologik kasalliklarning etiologiyasi.

Onkologik kasalliklarning kelib chiqish xususiyatlari va nazariyalari. Onkologik kasalliklar etiologiyasi bo'yicha tamoyillar. Itlarda onkologik kasalliklarning rivojlanishiga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillar. Onkologik kasalliklarni kelib chiqishi bo'yicha zamonaviy ta'limotlar va ularni tushuntirish.

4-mavzu. O'smalarning tuzilishi va o'sishi.

O'smalarning tuzilishi – parenximasining tuzilishi bo'yicha o'smalar farqlanishi va stromaning mikroskopik ko'rinishi, o'smalarning o'sishi – ekspansiv o'sadigan o'smalarning farqlanishi va infiltrativ o'sishning mexanizmi, ekspansiv, infiltrativ o'sish natijasida atrof hujayra va to'qimalardagi jarohatlar, oqibatlarining ahamiyati.

5-mavzu. Onkologik kasalliklarning itlar organizmiga umumiy va mahalliy ta'siri.

O'smalarning itlar orgazimga umumiy va mahalliy ta'sirida organizmda bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganish: nerv, endokirin va immun tizim faoliyatiga, itlar qonining morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri.

6-mavzu. Itlarda onkologik kasalliklarning etiologiyasi.

Veterinariya onkologiyasi amaliyotida onkologik kasalliklarni diagnostika qilish usullari: klinik tekshirishlar bo'yicha, maxsus jihozlar yordamida diagnoz qo'yish, laborator diagnostikasi, gistologik tekshirish texnikasi, biopsiya va autopsiya usullarida onkologik kasalliklarni diagnostika qilish.

7-mavzu. Biriktiruvchi to'qimadan rivojlanadigan o'smalar.

Yetilgan va yetilmagan hujayrali o'smalarning o'sishi, nazariyalari, patogenezi, patanatomiyasi va gistoximiyasi, yumaloq, polimorf, duksimon hujayrali o'smalarning farqlanishi. Xondroma, osteoma, angioma o'smalarining mexanizmi va patogistologiyasi.

8-mavzu. Epiteliy to'qimadan rivojlanadigan o'smalar

Yassi, shoxlanadigan va shoxlanmaydigan hujayrali xavfli raklar o'smalari, adenokarsinoma, xavfsiz o'smalar o'sishi, papilloma, adenomalarning atipizimi va patogistologik farqlanishi.

9-mavzu. Muskul va qon tomirlardan rivojlanadigan o'smalar

Mioma, gemangeoma, leykomioma, rabdomioma o'smalarining etiologiyasi, patogenezi va patogistologiyasi. Muskul, qon tomirlaridan infiltrativ va ekspansiv o'sadigan o'smalarning parinxemasi va stromasining makroskopik, mikroskopik ko'rinishlari.

10-mavzu. Nerv to'qimadan rivojlanadigan o'smalar

Meningioma, rabdioma, astoblastoma, epididoma, nevrinoma, melanoma,

astrositoma, oligodendroglioma, nevroblastoma va xavfli glioma o'smalarining o'sishi, to'qimaga xosligi, etiologiyasi, patogenezi, patogistologiyasi va gistoximik diagnostikasi.

11-mavzu. Teratomalar – aralash o'smalar

Teratomalarning tarkibi, bir necha genetik jihatlarini, har xil bo'lgan to'qimalar, teratomalarning avj olishida embrional taraqqiyotda har xil o'zgarishlarning roli, teratomalarning turi va tafovut etilishi, katta-kichikligi, tugunchasimon, bo'lakchasimon va sharsimon shakllarining ahamiyati.

12-mavzu. Leykozlar

Qon ishlab chiqaruvchi organlar leykozi, turli organ va to'qimalarda muntazam ravishda noetuk qon hujayralarining ko'payishining xarakterlanishi, gemositoblastoz, limfoid leykoz, mieloid leykozlarining farqlanishi, leykemik, aleykemik, subleykemik leykozlarining ahamiyati, itlar leykozlarining patomorfologiyasi.

13-mavzu. Itlarning onkologik kasalliklarini xirurgik usulda davolash.

Onkologik kasal itlarni operatsiyaga tayyorlash va klinik tekshirish. Operatsiyaga ko'rsatma va qarshi ko'ratmalar. Umumiy va mahalliy og'riqsizlantirish texnikasi. O'smalarni xirurgik usulda davolashning tamoyillari. Ablastika va antiblastika qoidalari.

14-mavzu. Itlarning onkologik kasalliklarining kimyoterapiyasi.

Onkologik kasalliklarni konservativ davolash usullari. Onkologik kasal itlarni kimyoterapevtik muolajalarga tayyorlash. O'smalarni davolashda ishlatiladigan kimyoterapevtik vositalarning turlari. Kimyoterapevtik davolash muolajalarini bajarishning texnikasi. Davolash oqibatlari va usullarni qiyosiy baholash.

15-mavzu. Itlarning onkologik kasalliklarning nur va krioterapiyasi.

Itlarda onkologik kasalliklarni nurlatirish usullari bilan davolash texikasi. Onkologik to'qimalarga nurlarning ta'siri. Nur usulida davolash muddatlari, davomiyligi va oqibati. Nur bilan davolashga onkokasallarni tayyorlash. Itlarda onkologik kasalliklarni sovuq va issiq usullarda davolashning ahamiyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'smalar va o'smasimon jarayonlar. Ularning turlari, shakli va o'sish xususiyatlari.
2. Itlarda uchraydigan o'smalarining morfologiyasi.
3. Onkologik kasal itlarni klinik tekshirish.
4. Onkologik kasal itlarni gematologik tekshirish.

5. Onkologik kasal irlarni immunologik tekshirish.
6. UZD yordamida onkologik kasal itlarga diagnoz qo'yish.
7. Onkologik kasalliklarning rentgenoterapiyasi.
8. Endoskopiya usulida onkologik kasal itlarga diagnoz qo'yish.
9. Onkologik kasal itlarda biopsiya texnikasi.
10. O'sma kasalliklarining gistologik diagnostikasi.
11. Xavfli o'smalarni davolashning umumiy tamoyillari.
12. Xavfsiz o'smalarni davolashning umumiy tamoyillari.
13. Onkologik xirurgiya
14. O'sma bilan kasallangan itlarni davolashda qo'llaniladigan kimyoterapevtik vositalar.
15. Nur terapiyasi texnikasi.
16. Itlarning og'iz va burun bo'shlig'i o'smalari.
17. Itlarning kekirdak va qizilo'ngachida uchraydigan o'smalar.
18. Itlarning ko'krak bo'shlig'ida uchraydigan o'smalar.
19. Itlarning oshqozon va ichaklarida uchraydigan o'smalar.
20. Itlarda suyak o'smalari.
21. Itlarning parenximatoz organlarining o'smalari.
22. Itlarda uchraydigan teri o'smalari.
23. Itlarda sut bezining xavfli o'smalari.
24. Itlarda sut bezining xavfsiz o'smalari.
25. Urg'ochi itlarning jinsiy organlarida uchraydigan o'smalari.
26. Erkak itlarning jinsiy organlarida uchraydigan o'smalari.
27. Itlarning limfoid organlari o'smalari.
28. Itlarda nerv tizimi organlarida uchraydigan o'smalar.
29. Itlarda leykozlar diagnostikasi.
30. Leykoslarni davolash.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob-uskunalar, preparatlar bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Itlarda karsinogenez asoslari.
2. O'smalarga qarshi immunitet.
3. Pigmentlardan hosil bo'ladigan o'smalar.
4. Qon tomirlardan rivojlanadigan o'smalar.

5. O'smalarning patogistologiyasi.
6. Onkomarkerlar.
7. Itlarda o'smalarning kompyuter tomografiyasi.
8. MRT diagnostikasi.
9. Immunogistoximiya.
10. Sitologik diagnostika.
11. Postoperativ terapiya.
12. Nur terapiya biologiyasi.
13. O'smaga qarshi vositalar.
14. Radioterapiya.
15. Epitelial teri o'smalari.
16. Limfatik o'smalar.
17. Gematopoetik o'smalar.
18. Buyrak o'smalari.
19. Orqa miya o'smalari.
20. Tuxumdon o'smalari.
21. Transmissiv o'smalar.
22. Gepatobiliar o'smalar.
23. So'lak bezi o'smalari.
24. Oshqozon osti bezi o'smalari.
25. Qalqonsimon bez o'smalari.
26. Sinovial hujayralar o'smalari.
27. Orqa miya o'smalari.
28. Gemangiosarkomalar.
29. Ko'rish organlari o'smalari.
30. Quloq va eshitish organlari o'smalari.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, organlarning preparatini tayyorlashi, preparovka qilishi, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

3

V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).

Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840106-Kinologiya va it kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda "Ta'lim" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlari asosida qishloq xo'jaligi va veterinariya fanini raqobatbardosh, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida ta'lim olayotgan magistr talabalar "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanidan itlarda uchraydigan onkologik kasalliklarning kelib chiqish nazariyasi, rivojlanishi, turlari, organizmning har bir to'qimlarida to'qimalarning rivojlanish nazariyalari, onkologik kasalliklarning diagnostikasi, differensial diagnostikasi, davolash va oldini olishni o'rganishdan iboratdir.

Veterinariya klinik fanlaridan biri bo'lgan "Itlarning veterinariya onkologiyasi" - itlarning to'qima, organ, hujayra va ultrastruktura darajasida o'smalarda hosil bo'ladigan dastlabki, boshlang'ich o'zgarishlarni o'sma hujayralari ichidagi organoidlar misolida o'rganish, to'qimalarning o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan jarayonlarni, ya'ni o'smalarni kelib chiqishi, rivojlanishi, klassifikatsiyalari va differensiasiya qilishni zamonaviy uslublardan foydalangan holda o'rganish xususiyatlarini o'rgatadigan fandır.

Ushbu fan magistr talabalarga itlarda uchraydigan onkologik kasalliklarning kelib chiqish nazariyalari, rivojlanish va o'sish mexanizmlari, onkologik kasalliklarning diagnostikasi, differensial diagnostikasi texnikalari, kasal hayvonlarni davolash va kasallikni oldini olishni o'rgatishdan iborat.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fandagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsatmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida berilgan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mutanosib taqsimlangan.

"Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

TDAU, "Umumiy zootexniya va veterinariya"
kafedrası professori, v.f.n.

Buxor

D.S.Vaxidova.

Oliy ta'limning 800000- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840106 - Kinologiya va it kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanidan itlarda uchraydigan onkologik kasalliklarning kelib chiqish nazariyasi, rivojlanishi, turlari, organizmning har bir to'qimlarida to'qimalarning rivojlanish nazariyalari, onkologik kasalliklarning diagnostikasi, differensial diagnostikasi, davolash va oldini olish bo'yicha bo'yicha o'rganishdan iboratdir.

Klinik fanlardan biri bo'lgan "Itlarning veterinariya onkologiyasi" – itlarning to'qima, organ, hujayra va ultrastruktura darajasida o'smalarda hosil bo'ladigan dastlabki, boshlang'ich o'zgarishlarni o'sma hujayralari ichidagi organoidlar misolida o'rganish, to'qimalarning o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan jarayonlarni, ya'ni o'smalarni kelib chiqishi, rivojlanishi, klassifikatsiyalari va differensiasiya qilishni zamonaviy uslublardan foydalangan holda o'rganish xususiyatlarini o'rgatadigan fandir.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, kinologiya va veterinariya amaliyoti va fani sohalarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.


Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsatmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Itlarning veterinariya onkologiyasi" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,
"Yuz-jag' jarrohligi" kafedrasini mudiri,
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent



tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Ilmiy amaliyot (Stajirovka):

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;
- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;
- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.

4.

VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Magistr bilishi kerak:

- itlarda uchraydigan onkologik kasalliklarning kelib chiqish nazariyalari, rivojlanish va o'sish mexanizmlari, onkologik kasalliklarning diagnostikasi, differensial diagnostikasi texnikalari, kasal hayvonlarni davolash va kasallikni oldini olish haqida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*
- veterinariya onkologiyasida kasal hayvonlarni davolashda hamda kasalliklarga diagnoz qo'yishda ishlatiladigan asbob-uskuna va jihozlarni qo'llay olishni *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)*
- magistr onkologik kasal itlarni klinik tekshirish, laboratoriya diagnostikasi texnikalarini bajarish, o'smalarni xirurgik usulda davolash, kimyoterapiya uchun dori vositalarini tanlash va hayvonni tayyorlash, kasal hayvonlarni muolajalar davomida saqlash va oziqlantirish ishlarini tashkil qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)*

5.

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

6.

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni

| | |
|----|--|
| | bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish. |
| 7. | <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Вахрушева Т.И. Онкология, учебник, Красноярский государственный аграрный университет, 2018.</p> <p>2. Д.В. Трофимцов, И.Ф. Вилковский, М.А. Аверин и др., Онкология мелких домашних животных, Москва, Издательский дом «Научная библиотека», 2017.</p> <p>3. Robert Klopffleisch, Veterinary Oncology, A Short Textbook, ISBN 978-3-319-41122-4 ISBN, Springer, Switzerland, 2016</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p> <p>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>9. Withrow and Macewen's Small Animal Clinical Oncology, 5th edition ISBN:978-1-4377-2362-5, 3251 Riverport Lane St. Louis, Missouri 63043, 2013</p> <p>10. В.В. Салаутин, И.В. Акчурина, И.Ю. Домницкий, А.А. Терентьев, метод. пособие по выполнению лабораторных работ для специальности 36.05.01 Ветеринария, ФГБОУ ВО Саратовский ГАУ. – Саратов, 2017.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>11. www.Ziyonet.uz</p> <p>12. www.veterinariya.medsinasi.uz</p> <p>13. www.sea@mail.net21.ru</p> <p>14. www.veterinary@actavis.ru</p> |
| 8. | Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan. |

| | |
|-----|--|
| 9. | <p>Fan modul uchun mas'ullar:</p> <p>B.D. Narziyev – SamDVMChBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası professori v.b.,</p> <p>J.B. Yulchiyev – SamDVMChBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası assistenti, PhD.</p> |
| 10. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>G'afforov U.B. – Samarqand Davlat tibbiyot universiteti "Yuz-jag' jarrohligi" kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p>Vahidova D.S. – TDAU, "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası professori, veterinariya fanlari nomzodi.</p> |